

Ilmiy izlanishlar uchun yana bir imkoniyat

2020-yil 31-yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning matematika, kimyo-biologiya va geologiya sohalari yosh olimlari bilan bo'lib o'tgan yig'ilishida O'zR FA Bioorganik kimyo instituti tomonidan Orolbo'yi hududidagi mavjud biologik obyektlarning kimyoviy, biokimyoviy, molekulyar biologik va ekologik xususiyatlarini o'rganish va ulardan biotexnologik ishlab chiqarishda foydalanishni tashkil etish maqsadida o'simliklarning tuzga va qurg'oqchilikka chidamliligini oshiruvchi yangi nav va liniyalar yaratish zarurligi taklif etilgan edi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan ushbu taklif qo'llab-qo'vvatlanib, mazkur tadqiqotlarni amalga oshirish uchun FA Bioorganik kimyo institutiga maxsus ekspeditsiya mashinasi ajratish topshirig'i O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasiga yuklatilgan edi.

Joriy yil 8-may kuni O'zbekiston Respublikasi O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasi raisi boshchiligida Institutga «UAZ Patriot» rusumli ekspeditsiya mashinasi topshirildi.

